INSON RUHIYATINI TUSHUNISH YO‘LLARI: ASOSIY PSIXOLOGIYA MAKTABLARI VA ULARNING ZAMONAVIY AHAMIYATI

Sattorova Mahliyo Burxanovna p.f.f.d (PhD)
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali o‘qituvchisi
Mamatqulova Zahro Furqat qizi, Mamatqulova Zuxra Furqat qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Psixologiya fakulteti, Psixologiya yo‘nalishi 411-26-guruh talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologiya fanining shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutgan asosiy ilmiy maktablar tahlil qilinadi. Strukturalizim, bixeviorizm, psixoanaliz, geshtalt va gumanistik psixologiya yo‘nalishlarining asosiy g‘oyalari hamda ularning zamonaviy hayotdagi amaliy ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: psixologiya maktablari, bixeviorizm, psixoanaliz, geshtalt psixologiya, gumanistik psixologiya, inson ruhiyati.

Nima uchun psixologiyada turlicha maktablar paydo bo‘lgan?

Inson ongi va xulq-atvori shu qadar murakkabki, uni bitta nazariya bilan to‘liq tushuntirib bo‘lmaydi. Psixologiya mustaqil fan sifatida ajralib chiqqanidan beri olimlar bir savolga javob izlab kelishadi: insonni aslida nima boshqaradi –uning ongli fikrlarimi, bolalikdagi yashirin kechinmalarimi yoki tashqi muhit ta`sirimi?

Aynan shu savolga turicha yondashuvlar natijasida psixologiyada bir nechta yirik ilmiy maktablar shakllandi. Har bir maktab inson ruhiyatiga o‘ziga xos nuqtayi nazardan fanning boyishiga katta hissa qo‘shdi.

Psixologiya tarixida eng katta iz qoldirgan va bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan asosiy yo‘nalishlar quyidagilardir:

1. Strukturalizm va funksionalizm (Ilk qadamlar). XIX asr oxirida Vilgelm Vundt va Edvard Titchener asos solgan strukturalizm inson ongini tarkibiy qismlarga (sezgi, hissiyot,tasavvur) bo‘lib o‘rganishni maqsad qilgan. Bunga javoban Uilyam Jeyms boshchiligidagi funksionalizm maktabi ongning tuzilishini emas, balki uning insonni atrof-muhitga moslashtirishdagi amaliy vazifasini birinchi o‘ringa qo‘ydi.

2. Psixoanaliz (Ongsizlik sirlari va chuqur psixologiya). Avstriyalik nevrolog va psixiatr Zigmund Freyd tomonidan yaratilgan psixoanaliz inson ruhiyti haqidagi an`anaviy tasvvurlarni tubdan o‘zgartirib yubordi. Freydning fikricha, inson xulq-atvorini ongli mantiq emas, balki ongsizlik sohasidagi yashirin istaklar, ichki psixologik ziddiyatlar va ilk bolalik davridagi ruhiy jarohatlar boshqaradi. Shaxsning himoya mexanizmlari, tushlar tahlili va psixoterapevtik suhbat usullari aynan shu maktab doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, zamonaviy psixoterapiyada ham keng qo‘llaniladi.

3. Bixeviorizm (Xulq-atvor va o‘rganish psixologiyasi). XX asr boshlarida amerikalik olimlar Jon Uotson va Berres Skinner psixologiyani aniq tabiiy fanlar darajasiga olib chiqishga harakat qildilar.Ular ko‘zga ko‘rinmas va obyektiv o‘lchab bo‘lmaydigan ichki kechinmalarni o‘rganishdan voz kechib, faqat tashqi kuzatish

mumkin bo‘lgan xulq-atvorni tadqiq etishni taklif qilishdi. Bixeviorizm ta`limotiga ko‘ra, insonning har qanday odati va harakati tashqi muhitdagi rag’bat va jazo (‘’stimul –reaksiya”formulasi)natijasida shakllandi.

4. Geshtalt psixologiya (Yaxlit idrok va tafakkur). Germaniyada Maks Vertxaymer, Volfgang Kyoler va Kurt Koffka tomonidan rivojlantirilgan geshtalt psixologiya bixeviorizmning mexanik yondashuviga qarshi chiqdi. “Geshtalt” nemis tilidan tarjima qilinganda “yaxlit shakl” yoki “obraz” ma’nosini anglatadi. Ushbu maktab vakillari inson miyyasi tahqi olamdan kelayotgan ma’lumotlarni alihida bo’laklar yig’indisi sifatida emas, balki yaxlit bir butunlik shaklida idrok etishini ilmiy tarjibalar orqali isbotladilar.

5. Gumanistik psixologiya (Shaxsiy o‘sish va o‘zini anglash). XX asr o‘rtalarida Karl Rojers va Abraxam Maslou psixologiyada “uchinchi kuch” deb nom olgan gumanistik yo‘nalishga asos soldilar. Ular insonni na ongsiz instintiktlar quli, na tashqi muhit tasiridagi oddiy mexanizm sifatida ko‘rishga rozi bo‘ldilar. Gumanistik psixologiya har bir shaxsda o‘z-o‘zini rivojlantirish, erkin tanlov qilish, mas`uliytni his etish va o’z ichki salohiyatini to’liq ro’yobga chiqarish (o’zini o’zi aktuallshtirish) intilishi mavjudligini asosiy g’oya sifatida ilgari surdi.

6. Kognitiv psixologiya (Aqliy jarayonlar va tafakkur tahlili). XX asrning ikkinchi yarimida axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan Ulrik Nayser va Jan Piaje kabi olimlar inson miyasini murakkab axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida o‘rganuvchi kognitiv psixologiyani rivojlantirdilar. Bu maktab diqqat, xotira, tafakkur, nutq va qaror qabul qilish kabi ichki aqliy jarayonlarning inson hayoti va ruhiy salomatligiga ta`sirini chuqur tahlil qiladi.

Zamonaviy psixologiyada maktablarning integratsiyasi. Bugungi kunda zamonaviy psixologlar o‘z foaliyatlarini faqat bitta nazariy maktab doirasi bilan cheklab qo‘ymaydilar. Aksincha, XXI asr psixologiyasida eklektik va integrativ yondashuv ustuvorlik qilmoqda. Chunki inson muammolari ko‘p omilli bo‘lib, ularni hal etishda turli maktablarning yutuqlarni uyg’unlashtirish yuqori samara beradi.

Masalan, insonning surunkali xavotir va qurquvlarini bartaraf etishda uning bolalikdagi kechinmalarni tushinish uchun psixoanalitik tahlil qo‘lanilsa, salbiy fikrlash qoliplarini o‘zgartirishda kognitiv psixologiya usullari, yangi foydali ko‘nikmalarani shakllantirishda esa bixeviorizm texnikalri birgalikda ishlatiladi .Shu tariqa tarixiy maktablar bir birini inkor etuvchi raqobatchilar emas, balki inson ruhiytaini anglashning o‘zaro to‘lduruvchi vositalarga aylangan.

Psixologiya maktablarining xilma xilligi fanning tarqoqligidan emas, balki uning tadqiqot obyekti bo‘lgan inson ruhiyatining cheksiz imkoniyatlaridan dalolat beradi. Har bir ilmiy maktab psixologiya fanning shakllanishida o‘zining bebaho nazriy va amaliy hissasini qo‘shgan. Ushbu maktablarning asosiy g‘oyalarini o‘rganish bo‘lajak psixolog mutaxassislar uchun mustahkam metodologik poydevor yaratadi hamda keng kitobxonlar ommasiga o‘z xulq-atvorini tahlil qilish, stressni boshqarish va shaxsiy rivojlanish yo‘llarini topishda amaliy ko‘mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.G‘oziyev,E.G‘.(2010).Umumiy psixologiya.Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti.

2.Karimova,V.M.(2012). Psixologiya: O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Sharq nashryoti.
3. Schultz,D.P,& Schultz, S.E.(2016).A History of Modern psychology (11th ed).Cengage Learning
4. Myers,D.G.,&DeWall,C.N.(2018). Psychology (12th ed.) Worth Publishers.
5. Немов, Р. С.(2014). Общая психология. В 3-х томах. Том 1:Введение в психологию. Москва:Юрайт.
6. Generativ sun’iy intellektning bo‘lajak psixologlar kasbiy kompetensiyasini shakllantirishdagi o‘rni va etik chegaralari . (2026). *Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar*, *2*(4), 176-180. https://ijcst.uz/index.php/journal/article/view/314
7. Ta'lim muassasalarida kognitiv tafakkurni shakklantiruvchi psixologik treninglarni ishlab chiqish. International scientific and practical conference (ISAPC-8), Fast support and result, D-PRESS SERVICES. (2026, февраль 14). Https://doi.org/10.5281/zenodo.19106049

ZUBTURUM (PLANTAGO MAJOR L.) ASOSIDA ANTIMIKROB FAOLLIKKA EGA BIOPREPARAT OLISH TEXNOLOGIYASINING ZAMONAVIY HOLATI VA ISTIQBOLLARI: ADABIYOTLAR TAHLILI

Agzamova Dilfuza Akbarovna
Sobirova Muqaddas Botirovna
Murodova Sayyora Sobirovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
e-mail: muqaddassobirova0510@gmail.com, agzamovadilfuza1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda katta zubturum (*Plantago major L.*) o‘simligining botanik tavsifi, dorivorlik xususiyatlari, kimyoviy tarkibidagi biologik faol moddalar, shuningdek, antimikrob biopreparatlar olish texnologiyalari hamda abiotik stress omillarining o‘simlik metabolitlariga ta’siri bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Manbalar tahliliga ko‘ra, zubturum boy kimyoviy tarkibi tufayli zamonaviy fitoterapiya va farmatsevtika sanoati uchun muhim xomashyo manbai hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Zubturum (*Plantago major L.*), bargizub, antimikrob biopreparat, biologik faol moddalar, ikkilamchi metabolitlar, sho‘rlanish, abiotik stress, ekstraksiya, nanokapsulalash.

KIRISH

Hozirgi kunda O‘zbekistonda dorivor o‘simliklar dehqonchiligi jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri bo‘lganligi sababli, *Plantago major L.* o‘simligining biologik faol moddalari va dorivor xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb hisoblanadi. Sintetik antibakterial vositalarga nisbatan mikroorganizmlarda chidamlilikning ortib borishi o‘simlik xomashyosi asosida